



PAPER

## SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “QIL KO‘PRIK” ROMANIDA TARIXIY VA IJTIMOY VOQELIK

Sonniboyeva Gulnoza Iskandarovna<sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

\*iskandarovnagulnoza390@gmail.com

### Abstract

Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev ijodining o‘zbek nasri taraqqiyotidagi o‘rni, uning badiiy-estetik qarashlari hamda realizm poetikasini shakllantirishdagi roli ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, adibning “Qil ko‘prik” romani misolida tarixiy voqelik va shaxs ruhiyati o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning badiiy ifodasi, “shafqatsiz realizm” unsurlarining poetik xususiyatlari ochib beriladi. Asarda Boysun muhitining badiiy makon sifatidagi ahamiyati, milliy ozodlik harakati fonida inson taqdiri va ichki ziddiyatlarining tasviri Qurbon obrazi misolida tahlil etiladi. Shuningdek, roman qahramonlari ruhiyatida mifologik tasavvur va ratsional tafakkur qarama-qarshiligi, portret va psixologik tasvir vositalarining estetik funksiyasi ilmiy asosda yoritiladi.

**Key words:** Shukur Xolmirzayev, “Qil ko‘prik”, realizm, shafqatsiz realizm, tarixiy roman, psixologik tahlil, Boysun muhiti, badiiy portret.

### KIRISH

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev XX asr o‘zbek nasrining taraqqiyot jarayonida alohida o‘rin tutgan yirik adib sifatida e‘tirof etiladi. Yozuvchining o‘tkir estetik tafakkurga asoslangan, janr va mazmun jihatidan serqirra ijodi inson ruhiyati, shaxs va jamiyat munosabatlari, tarixiy haqiqat va ijtimoiy ziddiyatlarning chuqur

badiiy talqiniga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Uning nasriy asarlari realizm poetikasiga tayangan holda hayot voqeligini haqqoniy, ba‘zan esa shafqatsiz aniqlik bilan aks ettirgani sababli keng kitobxonlar ommasining samimiy e‘tirofi va muhabbatini qozongan.

### ASOSIY QISM

Shukur Xolmirzayev ijodida Boysun va boysunliklar hayoti markaziy mavzu darajasiga ko‘tarilib, bu

Compiled on: March 16, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

hududga xos ijtimoiy-psixologik muhit yozuvchi badiiy tafakkurining tayanch konseptiga aylangan. Aynan shu omil adib ijodida realistik tasvirning ustuvor estetik tamoyil sifatida shakllanishida muhim rol o'ynagan. "Ayrımlar mavzu deganda, tasvirga olingan hayotiy materialni tushunishadi. Boshqalar esa asarda ko'tarilgan ijtimoiy muammoni mavzu deb bilishadi", -deb yozgandi yirik adabiyotshunos G.Abramovich. Yozuvchining dastlabki asarlarida sezilgan romantik pafos voqelikni tobora chuqurroq idrok etish jarayonida realizm bilan almashib, o'zbek adabiyotida "shafqatsiz realizm" unsurlarining paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Shukur Xolmirzayev o'zbek yozuvchilari orasida birinchilardan bo'lib milliy tariximizda uzoq vaqt davomida biryoqlama talqin qilingan va "bosmachilik harakati" nomi bilan atalgan davrni badiiy-estetik tadqiq etishga jur'at etgan adiblardan biridir. Ushbu tarixiy-muammoli masala yozuvchining "Qil ko'prik" romanida o'zining mukammal badiiy ifodasini topgan. Asarda tarixiy jarayonlar fonida adashgan, ijtimoiy va ma'naviy izlanishlar girdobida qolgan shaxslar fojiasi obrazlar tizimi orqali yorqin gavdalanitiriladi.

Romanda dastlab Buxoroda amirlik tuzumidan norozilik ruhida shakllangan ma'rifatparvar ziyolilar — "Yosh buxoroliklar" jamiyatining maxfiy faoliyati, amirning mislsiz zo'ravonligi natijasida Olimjon Arslonovning oilaviy fojiasi, uning Usmonxo'ja Polatxo'jayev bilan birgalikda zindonga tashlanishi kabi dramatik voqealar tasvirlanadi. Qahramonlar taqdirining keyingi rivoji yozuvchining tug'ilib o'sgan Boysun tumanida yashovchi, xarakter jihatidan rang-barang insonlar hayoti bilan uzviy bog'lanib, oddiy odamlarning jamiyatdagi o'рни, ijtimoiy kurashlari va ruhiy transformatsiyalari keng epik planda talqin etiladi.

Yozuvchi roman yaratilish tarixiga to'xtalar ekan, Buxoro milliy ozodlik harakatini XX asrda sodir bo'lgan boshqa milliy-ozodlik inqiloblari bilan qiyosiy kontekstda baholaydi va bu tarixiy hodisalarning bolalik xotiralari, shaxsiy hayotiy tajribalar bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu esa asarning avtobiografik va tarixiy qatlamlarini yanada teranlashtiradi.

"Qil ko'prik" romanida mazkur davr jamiyati va xalq hayotiga kompleks, ko'p qatlamli badiiy

tahlil berilgan bo'lib, asarning markazida sho'ro tuzumining adolatparvarligiga chin dildan ishongan, o'z e'tiqodi va ichki haqiqatini himoya qilish yo'lida ruhiy iztiroblarni boshdan kechirgan Qurbon obrazi turadi. Qahramonning ichki "men"i bilan tashqi — ijtimoiy-siyosiy "qizil askar men"i o'rtasidagi ziddiyat romanning asosiy konfliktini tashkil etadi. Bu ziddiyat mifologik tasavvurlar va ratsional ong qarama-qarshiligi orqali ramziy ma'no kasb etadi. "...Qurbonning bolalikda eshitgani- yong'oq ostida yotishning yomonligi, bir alvastining yong'oq shoxiga minib o'tirgani, bir oyog'i yerda-yu... mana shunday xunuk kovaklarda "xaligi"ning uchrashi (jinning nomini tutishmasdi) xayolining alla qayeridan zuv-zuv o'tgancha, o'zining kimligi...qizil askar yigiti ekani, jin-ajinalarning esa xurofotdan bo'lak narsa emasligi yodiga tushib, kovakdagi narsaga tik qaradi".

Qurbonning piri — Eshoni Sudur ibn Abdulloga bo'lgan munosabatida ham ruhiy ikkilanish, minnatdorlik va inkor motivlari murakkab psixologik holatda aks ettiriladi. "— U kishi mening pirim...edilar! — dedi Qurbon, nihoyat, Olimjon akaga manglayi ostidan boqib. — Otam qazosidan keyin meni o'z panohiga olib edilar.."

Boysunda... madrasada o'qitdilar. Keyin Buxoroga olib ketib, Mir Arab madrasasiga qo'ydilar... — U mutlaqo hissiz bir tarzda davom etdi. — Keyin o'zlari qayoqqadir ketdilar-u, badar ketdilar. — Qurbon kinoyali jilmaydi. —Yana gapira beraymi?

Arslonov yigitning ohangidan zardani sezdi. Unga boqdi-yu, yonoqlarida titroq ko'rdi.

— Nima bo'ldi senga?

— Hech narsa, — dedi Qurbon. —Aytyapmanda, Eshoni Sudur hazratlarining shogirdiman. U kishi hozir dushman deb!.. Sho'roga, qizillarga, sizga ham... Arslonov savoli yigitga malol kelganini angladi.

— Nega bu gaplar... — dedi. — Chamamda, u odamdan kechgansan-ku, to'g'rimi? — Albatta-da! — Qurbonning ovozi ko'tarilib ketdi. — Shuning uchun o'tgan ishga salavot!... Agar sizga ochig'ini aytsam, u kishidan men bir umr minnatdor bo'lishim lozim!".

Yozuvchi bu munosabatni dialog va ichki monologlar orqali ochib, qahramon ruhiyatidagi

keskinlikni yanada kuchaytiradi.

Shukur Xolmirzayev badiiy portret yaratishda ham yuksak mahorat namoyon etgan adibdir. Xususan, Qurbonning nutqi va xotiralari orqali Eshoni Sudur ibn Abdulloning tashqi qiyofasi, ruhiy holati va ma'naviy salobati nihoyatda aniq va jonli tasvirlanadi. "U daf'atan hayajonlanib, Eshoni Sudurning oppoq jelakda, oq-dastorda ko'rinishi, xiyol cho'ziq, ammo iyagi to'rtburchak, sergo'sht yuzi, biroz chuqur va mungli ko'zlari ... o'ziga favqulodda otalarcha mehr bilan boqishlari xayolidan o'tib, yana ko'tarildi: - U kishi bo'lmaganda, men hozir bu yerda yurmas edim, Olimjon aka!.." Bu portret o'quvchi tasavvurida real, hayotiy shaxs sifatida gavdalanib, asarning estetik ta'sir kuchini oshiradi.

Adibning asar yozishdan asl maqsadi Buxoro amirligining Sharqiy Buxoro, ya'ni Boysun hududida XX asrning boshlarida sodir bo'lgan tarixiy voqealikni badiiy talqin orqali yetkazish bo'lgan. O'sha davrning oddiy mehnatkash vakillariga xos bo'lgan fazilatlarini yozuvchi Qurbon obrazida jamlagan. U jamiyatda barcha insonlarning teng bo'lishini istagan. Tenglikka bo'lgan intilishi ortidan jamiyatda yuz berayotgan har qanday yangilikka qiziqqan. To'g'ri deb bilgan g'oyasiga ergashgan. Hatto ma'rifatli ziyolilar tashkil etgan "Yosh buxoroliklar" jamiyatiga qiziqishining sababi ham shu. Qurbonning bu qiziquvchanligi qamalishiga sabab bo'ladi.

Inqilob esa ozodlikka chiqishiga asos bo'ldi. Natijada yozuvchi uni inqilob himoyachisi, bu yo'lda fidokorlik qilgan obraz darajasiga ko'taradi. Qurbonga islom lashkarlari ichiga josus bo'lib kirish topshiriladi. U bu vazifani oson bajaradi, chunki sobiq piri Eshoni Sudur islom lashkarlari qo'mondoni Ibrohimbekning bosh maslahatchisi edi. Eshoni Sudurning o'ta muhim vazifada ekanligi Qurbonning dushman ichiga muammosiz va xavfsiz kirib olishi uchun zamin bo'ladi. Qurbon o'ziga qiyin va mas'uliyatli vazifa yuklatilganligini bilar edi. U bu vazifani sharaf bilan bajardi va halok bo'ldi. Shukur Xolmirzayev Qurbon obrazini hayotiy tasvirlagan. Ijtimoiy faol shaxs sifatida tasvirlash orqali esa unga joziba qo'shgan. Qurbondagi insoniy fazilatlar Oyparchaga bo'lgan sof sevgisi orqali ifodalangan. Qurbon tenglik tarafdori, yangilik himoyachisi, islom lashkarlari

ichiga kirib olgan josus bo'lsa-da, uning Allohga ishonchi, qalbida iymoni doim mavjud bo'lgan. Eshoni Sudur ko'magida madrasada tahsil olgan Qurbon diniy e'tiqodidan qalban voz kechmagan edi. Romanda bu holat ishonarli va hayotiy voqealar orqali aks ettirilgan.

Romanning bosh qahramonlaridan yana biri Oyparcha bo'lib, yozuvchi bu obrazni sodda, ijobiy xislatli, go'zal fazilatlarga boy xarakter sifatida tasvirlagan. Oyparcha arosatda qoladi. U na amirlik tarafiga o'ta oladi, na sho'rolar tomon bo'la oladi. Qurbon so'zi bilan aytganda "Qil ko'prik" ustida qolgan shaxs. Qurbon Oyparchaning qalbidan kechayotgan ikkilanishni anglagan holda unga to'g'ri yo'lni topishga ko'maklashadi. Oyparcha to'g'ri so'zli, dadil qiz, u ikkiyuzlamachilik va makkoralikni yoqtirmaydi. Qurbon va Oyparcha obrazlari bir-birining xarakterini har tonlama ochib berish uchun xizmat qildirilgan. Shukur Xolmirzayevning xarakter yaratishdagi mahorati ham shunda.

## XULOSA

Shukur Xolmirzayev o'z ijodi orqali XX asr o'zbek nasrida realizmning yangi, teran va keskin qirralarini namoyon etgan adibdir. Uning "Qil ko'prik" romani nafaqat tarixiy voqealarni badiiy aks ettiruvchi asar, balki shaxs va jamiyat, e'tiqod va inkor, mifologik tafakkur va zamonaviy ong o'rtasidagi murakkab ruhiy jarayonlarni tadqiq etuvchi falsafiy-estetik matn sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Romanda tarixiy haqiqat individual inson taqdiri bilan uyg'un holda tasvirlanib, Qurbon obrazi orqali davrning ijtimoiy-siyosiy bosimi ostida qolgan shaxsning ichki parchalangan ruhiy olami yuksak badiiy mahorat bilan ochib berilgan. Qahramonning ichki "men"i va tashqi ijtimoiy roli o'rtasidagi ziddiyat asarning asosiy konfliktini tashkil etib, yozuvchining psixologik realizmga xos badiiy tafakkurini namoyon qiladi.

Shukur Xolmirzayev portret, dialog, ichki monolog va ramziy tasvir vositalaridan unumli foydalanib, tarixiy shaxslar va badiiy obrazlarni jonli, ishonarli va estetik jihatdan mukammal tarzda yaratishga erishgan. Xullas, "Qil ko'prik" romani o'zbek adabiyotida tarixiy voqealikni inson ruhiyati prizmasidan tahlil qilgan yetuk badiiy-

falsafiy asar sifatida alohida o'rin egallaydi.

## References

1. Абрамович Г.Л. Введение в литературоведение. –Москва.
2. Xolmirzayev Sh. Qil ko'prik. Ziyo nashr.Toshkent, 2023-y.
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2010.
5. Ibrohim Haqqul. Adabiyot nazariyasi va badiiy tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
6. Ozod Sharafiddinov. Ijod mo'jizasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
7. Qozoqboy Yo'ldoshev. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.